

TURSUN SALIMOV

JAHON XALQLARI ETNOLOGIYASI

63.5 ya 73

57a

S-26

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI HUZURIDAGI
O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI MASALALARI BO'YICHA
MUVOFIQLASHTIRUVCHI-METODIK MARKAZ

TURSUN SALIMOV

JA'HON XALQLARI ETNOLOGIYASI

5120300 - Tarix bakalavriat yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma



O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

«Fan» nashriyoti

Toshkent-2018

UO'K: 572.9(=1/=8)(075)

KBK 63.5(0)

S 26

Mas'ul muharrirlar:

A. M. Malikov – tarix fanlari nomzodi

A. R. Qayumov – tarix fanlari nomzodi

K. K. Sagdullayev – san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar:

B. M. Ubaydullayeva – tarix fanlari doktori

M. X. Payziyeva – tarix fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

A. D. Bobobekov – O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

O'quv qo'llanma O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi va O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markazning yangi o'quv adabiyotlarini tayyorlash va chop etish vazifasi doirasida nashr qilindi.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 14-iyundagi 531-son buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.



ISBN 978-9943-19-497-7

© T. Salimov. Jahon xalqlari etnologiyasi, 2018-y.

© O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, 2018-y.

© O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
«Fan» nashriyoti, 2018-y.

/// S O'ZBOSHI ///

Tarix guvohlik berishicha, insonlar faqatgina o'z urug'-qabilasining hayot tarzi, an'analari va odatlari haqidagi bilimlar bilan cheklanmagan, balki ular atrofidagi xalqlarning turmushi va madaniyatiga ham qiziqishgan. Vaqt o'tishi bilan bu boradagi bilimlar boyib, xalqlarning etnik manzarasi bo'yicha to'laqonli tasavvur shakllanishiga zamin bo'lgan.

Hozirda jahondagi yetakchi ilmiy maktablarning an'analari bo'yicha etnologiyadan qator darslik va o'quv qo'llanmalar mavjud. Shu bilan birga O'zbekiston oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish yuzasidan islohotlar ta'lim jarayonini takomillashtirish hamda uni sifat jihatidan yangilashga yo'naltirilgan ekan, yangi o'quv adabiyotlariga ehtiyoj katta.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev boshchiligidagi mamlakatda «oliy ta'lim tizimi taraqqiyotning lokomotivi bo'lish»iga erishishdek ezgu maqsad bilan amalga oshirilayotgan ishlar qatorida O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz tomonidan «Arxivshunoslik», «Manbashunoslik» darsliklari, «Muzeyshunoslik» o'quv qo'llanmasi chop etildi. Bu kitoblarning barchasi oliy ta'lim muassasalarining tarix fakultetlari talabalariga mo'ljallab yozilgan. Ular orasida «Jahon xalqlari etnologiyasi» bo'yicha o'quv qo'llanma ham nashrga tayyorlandi.

Tarix fanlari nomzodi, dotsent Tursun O'sarovich Salimov tomonidan yaratilgan mazkur o'quv qo'llanma mazmuni jahon xalqlari haqidagi fanning zamonaviy nazariy-metodologik asoslariga tayangan holda tizimli bayon etilgan. Etnologiya tushunchalari va atamalarining aniq talqini, tarixiy va zamonaviy materiallar keng foydalanilishi ushbu o'quv adabiyotining yutug'i hisoblanadi.

O'quv qo'llanma muallifi O'zbekistonda etnologiya fani rivojlanishining zamonaviy ahvolini hisobga olgan holda dunyoning etnik manza-

rasini ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan. Jahon xalqlari madaniyatining an'anaviy turmush madaniyatini tavsiflovchi materiallar ma'lum hudda yashovchi xalqlarning etnografik an'analari va madaniyatini tadqiq etishning zamonaviy muammolariga mos holda taqdim etilgan.

Muallif T.O' Salimov etnologiya fani mutaxassisi sifatida katta tajribaga ega bo'lib, bu fanni oliy ta'lim muassasasida o'qitish muammolarini yaqindan biladi. Ayni vaqtda u kishi O'zbekistonning turli viloyatlarida amalga oshirilgan dala tadqiqotlarida ham ma'lum natijalarga erishgan. Bu esa o'quv qo'llanmani yozishda, nafaqat olim, balki pedagog, amaliyotchi sifatida yondashishga imkon bergan. Albatta etnologiya fanining ko'plab masalalari hozirga qadar munozarali jihatlari yo'qotmagan. Shu ma'noda muallif O'zbekiston zamonaviy etnologiyasida shakllangan va umume'tirof etilgan tamoyillar doirasida ish tutgan.

Umuman o'quv qo'llanma bir-biri bilan mantiqan bog'langan o'n to'qqiz bobdan iborat bo'lib, uni yozishda mahalliy va xorijiy adabiyotlardan foydalanilgan.

O'quv qo'llanmadan, nafaqat tarix fakultetlari talabalari, qolaversa, ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishlari bo'yicha tahsil olayotgan boshqa yoshlar ham foydalanishi mumkin. Bu ularning jahon xalqlari etnologiyasi bo'yicha tasavvurlarining boyishi va bilimlarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

***Tarix fanlari doktori, professor, M.A. Raximov,
tarix fanlari nomzodi A.M. Malikov***

/// E TNOLOGIYAGA KIRISH ///

1. Etnologiyaning predmeti. Etnologiya (xalqlarni o'rganuvchi fan) Yer yuzida yashaydigan barcha xalqlarni o'rganadi. Ma'lumki bugungi kunda dunyo aholisi 7 mlrd. kishidan oshdi. Insonlar ijtimoiy (jamoaviy) jonzot sifatida turli jamoalarga birlashadilar.

Tarixan eng erta vujudga kelgan odamlar jamoalari aynan etnik asosda birlashgan. *Etnik jamoalar* yoki *etnoslar* (sinonim tarzida xalqlar ham deyish mumkin) – tarixan ma'lum hududda shakllanib, o'z ko'rinishi bo'yicha odamlarning ko'p sonli birlashmasi hisoblanaadi. Ularni umumiy til va madaniyat, ongi (o'zligi) birlashtirib, o'zlari-ni o'zgalardan farqlaydilar. Etnoslarning xarakterli xususiyatlari – tili, madaniyati avloddan avlodga o'tadi.

Bugungi kunda tadqiqotchilar yer yuzida 3 mingdan 4 minggaacha turli xalqlar, elatlar borligini ta'kidlaydilar. Bundan aniqroq raqamni aytish murakkab. Sababi, aholi ro'yxati barcha hududlarda o'tkazilmagan, qolaversa qaysi etnik birlikni xalq, qaysisini elat yoki qabila deb atash masalasi ham oxirigacha hal etilmagan. Xususan, xitoyliklar 1 milliarddan ortiq bo'lsalar, Braziliyadagi botokudo yoki Argentinadagi yamanalar atigi bir necha yuz, hatto bir necha o'n kishidan iborat bo'lishi mumkin. Ayni paytda yirik xalqlar Yer kurrasining ko'pchilik aholisini tashkil etadi. Jumladan har biri 10 milliondan ko'p bo'lgan 70 ta xalq, jami Yer yuzi aholisining 80 foizini tashkil qiladi. Yirik xalqlar qatoriga xitoyliklardan tashqari hindistonliklar, AQSh amerikaliklari, bengallar, ruslar, yaponlar va boshqalar kiradi. Bu xalqlar insoniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan va qo'shmoqdalar. Qolgan etnoslar jumladan eng kam sonlilari ham dunyo madaniyati fondini boyitishga o'z hissalarini qo'shdilar. Agar tibetliklar baland tog'larda yashash va xo'jalik yuritish ko'nikmalarini namoyon etishsa, eskimoslar, chukchalar, saamlar Arktikaning qahraton sovuqlarida qanday hayot kechirish mumkinligini ko'rsatmoqdalar.

Bugunga qadar etnologiya haqida XIX asrda shakllangan faqat antiqa xalqlar, qadimgi, arxaik jamiyatlar, taraqqiyoti jihatidan orqada

qolgan etnik jamoalarni o'rganuvchi fan degan eski tasavvurlar saqlangan. Lekin ushbu fikr butunlay noo'rin bo'lib, endilikda etnologiyada yuksak rivojlangan millatlar bilan bir qatorda Tinch okeanining uzoq orollarida yashayotgan ko'p sonli bo'lmagan etnik jamoalar ham tadqiq qilinmoqda.

Bugungi etnologiyaning dolzarb masalalari:

- xalqlarning kelib chiqishi yoki ularning etnogenezi;
- xalqlarning taraqqiyoti tarixi yoki etnik tarix;
- etnoslar moddiy va ma'naviy madaniyatining (qishloqlar, kiyimlar, taqinchoqlar, taomlar, xalq og'zaki ijodi yoki folklor, xalq san'ati) o'ziga xos xususiyatlari;
- dunyo dinlari va diniy tasavvurlar, udumlar, urf-odatlar, marosimlar, bayramlar va hokazolardir.

Etnolog olimlar odatda, an'anaviy, o'tgan ajdodlardan meros qolgan, madaniyatning xalq, eng avvalo dehqonlar (qishloqliklar)da saqlangan elementlarini o'rganishga alohida e'tibor qilishadi. Hatto, zamonaviy shahar aholisini o'rganganda ham etnolog an'anaviy udumlar, urf-odatlar, moddiy va ma'naviy madaniyatning qanday jihatlari saqlanganligini aniqlashga intiladi.

Ayni paytda etnologiya faqat etnik jamiyatlarning o'tmishi, uning bugungi kunga qadar saqlangan unsurlarinigina o'rganmaydi. Uni xalqlarning zamonaviy hayoti ham qiziqtiradi. Zamonaviy etnoslarning hayot faoliyatini so'nggi asrda vujudga kelgan qator yordamchi fanlar ko'magida tadqiq qiladi. Xususan, etnik sotsiologiya turli etnoslarning ijtimoiy toifalari, sinflar, tabaqalar, ijtimoiy birlashmalarini o'rganadi. Etnik ekologiya etnik jamiyatlarning tabiiy-geografik muhit bilan qanchalik o'zaro ta'sirini tadqiq etadi.

Bugungi dunyoda u yoki bu etnosning istiqboldagi taraqqiyoti, etnoslararo munosabatlarning qanday rivojlanishi haqidagi prognozlarning ahamiyati oshib bormoqda.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, etnologiya fani xalqlar – etnoslar haqida qayg'uruvchi fandir. Etnologlar zamonaviy insoniyatning asrlar davomida to'plagan etnik va madaniy xilma-xilligini imkon darajasida saqlash tarafdorlaridir.

Etnologlar doimo ishlatadigan tushunchalardan biri madaniyatdir. Bugungi kunda madaniyatning barchani qoniqtiradigan qoidasi (aniqlovchisi) mavjud emas. Zamonaviy etnologlar madaniyat deganda

insonlar aqli va qo'li bilan yaratilgan, ularning hayot faoliyatlari uchun zarur vositalar va usullar deb tushunadilar. Madaniyat – insonlarning hayot kechirishi uchun yaratilgan sun'iy muhitdir.

Bir xil ehtiyojlarni (mehnatda, taomda, uyquda, muloqotda, kiyimda) qoniqtirish uchun harakatlar turli xalqlarda turlicha bo'ladi. Masalan, zamonaviy o'zbeklarda ayrim toifa kishilari stol-stullarda o'tirib, qoshiq, vilka, pichoqlardan foydalanib taom yesa, boshqalari xontaxta atrofida o'tirib nonushta, tushlik, kechki ovqat tanovul qiladilar. O'zbeklar yostiqlikda yotishsa, Sharqiy Osiyo xalqlari yog'ochdan kichik-kina moslamaga bosh qo'yib yotadilar. Etnik va hududiy tafovutlar odamlarning qanday qurollar vositasida mehnat qilishlari, qanday uy-joylarni, kiyimlarni, taomlarni ma'qul ko'rishlarida ham namoyon bo'ladi.

Xalqshunoslik ijtimoiy, shuningdek tarix fani qatoriga kirib bir qancha ilmiy sohalar – geografiya, lingvistika, folklorshunoslik, arxeologiya, san'atshunoslik va boshqalar bilan uzviy bog'liqdir.

2. Etnologiyaga oid bilimlarning rivojlanishi va fan sifatida qaror topishi. Ilk etnografik ma'lumotlar bizga Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari yodgorliklari orqali yetib kelgan. Bobilliklar, ossurlar, misrliklar o'zlaridan toshlarga bitilgan odamlarning tashqi qiyofalari, kiyimlari tasvirlarini qoldirganlar.

Yunon-Rim dunyosi ham o'zidan keng miqyosdagi haqiqat tavsiflangan etnografik ma'lumotlar bilan birgalikda, ayrim xayoliy, buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni ham qoldirganlar. Gerodot va Korneliy Tassitlar o'z asarlarida xalqlarning kelib chiqishi, ularning qarindoshligi masalalarini qo'yishgan. Dunyo xalqlari haqidagi tasavvurlar Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin yanada kengayadi. X.Kolumb (1492) Amerikani kashf etishi, Vasko da Gama (1497-1499) Yevropadan Afrikaning janubi orqali Hindistonga dengiz yo'lini ochishi, F.Magellanning (1519-1522) dunyo bo'ylab ilk sayohat ekspeditsiyasi insoniyatni yangi xalqlar, madaniyatlar bilan tanishtirdi. Ayni paytda yevropaliklarning mustamlakachilik siyosati boshlanib, aynan shu jarayon etnologiyaning fan sifatida shakllanishiga zamin bo'ldi.

Etnologiya fani ilmning mustaqil sohasi sifatida XIX asrning o'rtalarida vujudga keladi. Bu davrda qator davlatlar (Buyuk Britaniya, Fransiya, Niderlandiya, Ispaniya, Portugaliya, Rossiya) yirik mustamlakachi davlatlarga aylanadilar. Turli etnoslarning tili, urf-odatlari,

madaniyatini o'rganish ko'pincha mustamlaka ma'murlarining amaliy ehtiyojlari, boshqaruv va xo'jalik faoliyati, shuningdek, savdo-iqtisodiy munosabatlarga kirishish bilan bog'liq tarzda bilish zaruratidan kelib chiqqan.

1839-yili Fransiyada Parij etnologiya jamiyatiga asos solindi. Shu vaqtdan boshlab Fransiya etnologiya tadqiqotlari bo'yicha markazlardan biriga aylandi. 1842-yili Amerika etnologiya jamiyati yuzaga keldi. Germaniyada XVIII asr oxirida Yevropadan tashqaridagi xalqlar va madaniyatlarni o'rganish maqsadini o'z oldiga qo'ygan ilmiy yo'nalish shakllandi. XIX asrning 30-yillaridan nemis sayohatchilari va olimlari tomonidan xalqlar haqidagi bayonlarni umumiy nomda atash uchun «etnologiya» atamasi qo'llanila boshlandi.

Inglizabon mamlakatlarda xalqlar haqidagi fan – antropologiya-ning, aynan uning ijtimoiy antropologiya, deb ataladigan ilmiy yo'nalishining tarkibiy qismi sifatida rivojlanib bordi. Ilmiy muomalaga bu nomlanish 1906-yili Angliya etnologiyasi asoschilaridan biri Jeyms Frezer tomonidan kiritildi. «Ijtimoiy antropologiya» tushunchasi keng tarqalib, «etnologiya»ning inglizcha muqobili sifatida ishlatildi. Angliyadan farqli tarzda AQShda etnologiya «madaniy antropologiya» nomi bilan rivojlandi. XX asrning 50-yillaridan boshlanib, mazkur yo'nalish xalqlarning madaniy o'ziga xos muammolarini o'rganish bilan kifoyalanmadi, balki etnomadaniy jarayon ham diqqat markazida bo'ldi.

Rossiya etnologiyasi XIX asr o'rtalarida yuzaga keldi. Bunda 1846-yili Rus geografiya jamiyati ta'sis etilishi muhim ahamiyat kasb etdi. 1849-yili Rus geografiya jamiyati tarkibida Etnologiya bo'linmasi ochildi. Rossiya etnologiyasi fani boshida XIX asrning 40-50-yillari etnologiya (etnografiya) fanining asosiy tamoyillarini shakllantirishga xizmat qilgan K.M.Ber, N.I.Nadejdin, K.D.Kavelin kabi rus olimlari turgan. Xalqlar haqidagi rus fani tarixida N.N.Mikluxo-Maklayning ilmiy faoliyati shuhrat qozondi.

Ilk etnologlar yuksaltirgan muhim g'oyalardan biri – madaniyat evolyutsiyasi, oila, din va ijtimoiy hayotning boshqa jihatlarini tadqiq etish bo'lgan. Etnolog-olimlar Yer yuzidagi madaniyat va jamiyat taraqqiyoti, umumiy ichki qonunlarga bo'ysunib soddalikdan murakkablikka tomon yuksala boradi, deya hisoblashadi. Evolyutsionizm g'oyasi jamiyat va uning tarixiga oid ilmiy tasavvurlarning tarqalishiga xizmat qiladi.

Evolyutsiya nazariyasining yirik vakillari qatorida: ingliz E.Taylor (1832-1917), amerikalik L.G.Morgan (1818-1881), N.N.Mikluxo-Maklay (1846-1888) va boshqalar bo'lgan. E.Taylorning asosiy asari «Ibtidoiy madaniyat» insoniyatning ma'naviy madaniyati, ayniqsa diniy tasavvurlarining taraqqiyotiga bag'ishlangan. Morganning butun ilmiy hayoti Amerika hindu qabilalarini o'rganish bilan o'tgan. Uning asosiy asarlari «Qadimgi jamiyat» va «Irokezlar (xodenasauini) ligasi»da olim urug'chilik jamoasi va davlat vujudga kelishi orasidagi bosqichni o'rganib, fanning eng mashhur kishilaridan biriga aylandi. N.N.Mikluxo-Maklay Yangi Gvineya papuaslari haqida ham ajoyib asarlar yozib qoldirgan.

Shuningdek, asli polshalik ingliz olimi B.K.Malinovskiy, ingliz A.R.Radcliff-Braun, amerikalik F.Boas, fransuz K.Levi-Stros, rossiyalik S.P.Tolstov va boshqa olimlar o'zlarining ajoyib izlanishlari bilan ilmiy yo'nalishlarga asos solishdi. Ingliz D.Livingston (1840), amerikalik G.Stenli (1871), nemis L.Frobenius (1903), ingliz B.Devidson (1940) kabi olimlar va sayohatchilarning ekspeditsiyalari Afrikaning qadimgi va zamonaviy madaniyatlari ochilishiga xizmat qildi.

1933-yili Moskva antropologiya va etnografiya muzeyi asosida Antropologiya, arxeologiya va etnografiya instituti faoliyat ko'rsata boshladi, keyinchalik u SSSR Fanlar akademiyasining Etnografiya instituti sifatida qaytadan tashkil etildi. Shu tariqa Ukraina, Belorussiya, Kavkaz, **O'rta Osiyo**¹ respublikalari va boshqa hududlarda etnografiya markazlari yuzaga kela boshladi.

SSSRda 1990-yillarga qadar ilmiy adabiyotlarda «etnologiya» atamasi deyarli ishlatilmagan (XX asrning 20-yillari bundan mustasno). Shu sababdan etnologiya etnografiya bilan birga rasman «etnografiya» nomi bilan rivojlandi. Etnografiya instituti Etnologiya va antropologiya instituti, deb qayta nomlangandan keyin «etnologiya» mustaqil ilmiy soha sifatida umume'tirof etildi va keng qo'llanila boshlandi.

1991-yildan keyin O'rta Osiyo mamlakatlari ilmiy adabiyotida *etnografiya* qatorida *etnologiya*, *ijtimoiy antropologiya*, *madaniy antro-*

¹ Ma'lumki O'rta Osiyo atamasi Markaziy Osiyo mamlakatlari deb atalishi siyosiy jihatdan XX asrning 90-yillari o'rtalaridan qo'llanila boshlandi. Barcha geografik va etnologik asarlar, darslik va qo'llanmalarda Markaziy Osiyo deb Mo'g'uliston, Oltoy, Janubiy Sibir hududlari tushuniladi. Talaba va o'quvchilarda anglashmovchilik bo'lmasligi uchun ushbu qo'llanmada O'rta Osiyo atamasidan foydalanildi.